

## “Sab’ayi Sayyor” Va “Haft Paykar”: Dostonlarning Kompozitsiyasida An`Ana Va Farqliklar

Fayzullayev Zavqiyjon Qobiljon o'g'li<sup>1</sup>

**Anatatsiya:** Mazkur maqolada “Xamsa” turkumiga mansub asarlardan Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibidagi “Sab’ayi sayyor” hamda Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj”i tarkibiga kiruvchi “Haft paykar” dostonlari haqida fikr yuritilgan. Maqolada, asosan, dostonlarning kompozitsion qurilishidagi o’ziga xosliklar haqida umumiy tushuncha berib borilgan.

“Sab’ayi sayyor” (“Yetti sayyora”) Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumidagi dostonlarning to’rtinchi dostoni (1484), ishqiy sarguzasht xarakterda. 38 bob (5000 baytdan oshiq). Avvalgi fasllarda ta’kidlaganimizdek, afsonani yozma adabiyotga, dastlab Firdavsiy olib kirgan. So’ng Nizomiy, Xisrav Dehlaviy va boshqalar shu mavzuda asarlar yozganlar. Navoiy bu tajribalarni umumlashtirib, mukammal, original doston yaratgan. Doston Sharqda “Bahrom va Gulandom”, “Bahromnoma”, “Haft manzari Bahrom” nomlari bilan shuhrat qozongan. “Sab’ayi sayyor” an’anaga ko’ra o’n muqaddima bob - hamd, munojot, na’t, me’rojnoma, so’z ta’rifi, nasr va nazmning farqi (shu bobda Nizomiy va Xusrav Dehlaviy madhi ham beriladi), Abdurahmon Jomiy madhi, “Haft paykar” va “Hasht bihisht” dostonlariga e’tiroz, Sulton Husayn Bahodirxon va Xadichabegim madhi bilan boshlangan.

Nizomiy “Haft paykar”i esa sakkizta muqaddima va asosiy ellik uch bobdan iborat. Muqaddima boblar: hamd, na’t, me’rojnoma, kitobning yozilish sababi, Sa’id Alouddin Karp Arslon podshoh duosi, shohga iltijoli xitob, so’z fasihati va hikmat nasihati, o’z farzandi Muhammadga nasihatdan iborat.

Nizomiy Ganjaviy hamda Tangri taoloning azal-u abadligi, har qayda mavjudligi, o’zining sifatlaridan odamni yaratganligi, jahonni hechdan bor etganligi, bu olamda hamma narsa uning istagi bilan bo’lishi haqidagi fikrlaridan so’ng Allohga yetti osmondan tashqarida bizga panoj bergin, aqli butunlar senga yo’l topishadi, fayz-u madadkoringga muhtojmiz, elning eshigiga muhtoj etma, nonimni vositasiz bergin deb yolboradi:

Dunyo ishidin meni sarsonni xos,  
Sen xalos etkuchi, etgil xalos.  
Nola etay kimga o’zing qo’llag’il,  
Ayla qabul maqbulig’a yo’llag’il.  
Har siri pinhoniki gar bor base  
Senga na maxfiy siri har kase.  
Bir g’araze yo’qki sendin nihon,  
Sendan u ham oni bilursan ayon.  
Bu g’arazimla senga gar yetmasa  
Senla murodim erur har lahza ham...  
Elga sirim so’zlasamo xormano  
Senga desam o’ta ulug’vormano

Hamd so’ngida yaratgandan sarbaland etishini, eshigidan quvmasligini himmat toji bilan xursand etishini so’raydi:

Toki bavaqte u chu arzkor o’lur,  
Garchi o’zi darvesh-u tojdor o’lur.

Navoiy hamda Allohni olamning yaratuvchisi sifatida madh etar ekan, dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e’tiborni qaratib (bu raqam Nizomiyda ham keltirilgan), falakning yetti qavat ekanligi, yetti gumbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo’lingani, yetti ko’k, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi. Shuningdek, Bahrom va Dilorom so’zlarini asl va majoziy ma’holarda qo’llab, sayyoralar olami, dunyoning yaratilishi haqida o’z falsafiy qarashlarini bayon qiladi, olamning yaratilishini tasavvufdagi vahdat ul- vujud falsafasi asosida bayon qiladi:

Ishq sensen dog'iyu oshiqsen,  
Yana ma'shuqluqqa loyiqsen.  
Ayni ma'shuqluqda jilvai zot,  
O'zini ko'rgali tilab mir'ot.  
Husnunga har dam o'zga surat o'lub,  
Ko'zgu takrori ham zarurat o'lub.  
Necha husn ichra jilva zohir anga,  
Ko'zguluk aylabon mazohir anga...  
Sensenu sendin o'zga xud nima yo'q,  
Gar ko'rinsa sen o'lg'ung ul nima o'q<sup>2</sup>.

Navoiy dostonining 2-bobi munojot. Nizomiy dostonida munojot yo'q. hamdning so'ngida shoir najot so'ragan joyi mavjud. Navoiy munojotida buyuk shoirning yaratuvchiga murojaati, najot umidi, tavba va iltijolari o'z ifodasini topgan:

Qodiro, ul zaifu osiymen,  
Ki boshimdin ayoq maosiymen.

Navoiy o'zini toat vaqtida xasta chumoliga, isyon vaqtida vahshiy sherga, nafsini bahaybat filga, ko'nglini nimjon pashshaga o'xshatadi:

Toat aylarda mo'ri xasta barin,  
Lek isyon mahalli sheri arin.  
Nimjon pashsha ko'nglum ayla gumon,  
Zo'ri nafsım nechukki pili damon.

Shuningdek, munojotda yaratilayotgan asarning shuhratini olamga yoyishni so'rab qilingan iltijo ham mavjudligini ko'ramiz:

Shuhratin olam ichra paydo qil,  
Olam ahlin alarga shaydo qil.  
Ikkala dostonning keyingi boblari na'tdir.

Nizomiy na'tida Muhammad s.a.v.ning olamning yaratilishi ibtidosi ekanligi, payg'ambarlarning so'ngi (xatmi) ekanligi, barchaning borligi undan ekanligi, faqirligi bilan faxr etishi, nafasi xushbo'y mushk ekanligi, oyni barmog'i bilan ikkiga bo'lgan voqelariga ishora qiladi<sup>3</sup>.

Navoiy esa na'tni salom bilan boshlaydi. Muhammad s.a.v.ning asli Qurayshiy ekanligi, manzili Abtahi, mazhabi hoshimiy, manzili Yasrib ekanligini ta'kidlaydi. U zoti muborakni arablar uchun ko'z qorachig'i, keti yo'q qorong'ulikdan so'ng zulmatni yo'q qilib chiqqan quyosh deb atab, hammaga namuna bo'lguvchi fe'l-u atvori, xushbo'y sochi, ham qizil la'l, ham dur sochuvchi labini maqtaydi. Odam Ato senga o'gil bo'lganligidan shod, sening bolangga butun olam ahli avloddir, payg'ambarlarning avvali ham, oxiri ham o'zingsan, ularning barchasidan ajratib turuvchi Me'rojdir, - deb na'tni yakunlaydi<sup>4</sup>. Shunga ham e'tibor berish kerakki, Nizomiy Payg'ambar s.a.v.ni U (3-shaxs) deb, Navoiy esa Sen (2-shaxs) deb madh etgan.

Keyingi boblar ikkala dostonida ham me'rojnomaadir. Ularda Buroq otida Muhammad s.a.v.ning xayol yetmas joygacha yetganligi va aql bovar etmaydiganlarni topganligi, sayyoralar va burjlardan oshganligi haqidagi fikrlar aytilgan.

"Sab' ai sayyor"ning 5-bobi "So'z ta'rifida" bo'lsa, Nizomiy dostonida shunday mavzu 7-bobda ko'tarilgan. Bu boblarda har ikkala dostonida ham so'zning hamma narsadan ko'hna ekanligi, olamning paydo bo'lishiga asos bo'lganligi haqidagi fikrlar umumiylikni tashkil etadi. Nizomiy ushbu bobda bundan tashqari inson o'zini tanishi zarurligi, do'stlik, boylikka hirs qo'ymaslik zarurligi, nekbinlik, badbinlik haqidagi fikrlarini ham berib o'tadi:

O'ziga yomonlik qilgaydir inson,  
O'zgalar haqida bo'lsa badgumon.  
Bir himmate etsa nekandesh,

<sup>2</sup>Alisher Navoiy, Sab' ai sayyor, G'.G' ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 8-bet

<sup>3</sup> Низомий Ганжавий, "Хамса". Тошкент: "Истиклол нури". 2016, 322-бет

<sup>4</sup> Alisher Navoiy, Sab' ai sayyor, G'.G' ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 294-bet

Nekpeshalik neklik keltirgaydir besh<sup>5</sup>.

Shoir bu bobda odam bolasiga nasihat qilib, biror kishi sening qo'lingdan tutmaganiga xafa bo'lma, ustingga chiqib tepmayotganiga shukr qilgin, ochlarning oldida non yema, yeyishni istasang hammaga dasturxon yoz, el ishiga kamarbasta bo'l, jahonni xulqing bilan yashnatgin, - deydi. Qisqasi, bunda Nizomiyning so'z fasohati bilan hikmatli nasihat qilish uslubi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, bugungi hayotimizga bog'liq bo'lgan:

Maktabilarini qulog'in cho'zgil,

So'z lavhini shunda o'rganishar bil, - deydi.

Navoiy esa so'zning ta'rifi va so'z aytuvchiga biroz gapirib o'tmoq, uning olamga asos ekanligini aks ettirgan:

Jism bo'stonig'a shajar so'zdur,

Ruh ashjorig'a samar so'zdur.

Gulshane keldi jismi insoni,

Nutq aning bulbuli xush alhoni.

Bo'yla bulbul navosi so'zdur-u bas,

Nag'mayi jonfizosi so'zdurur-u bas.

Bo'lmasa so'z ajab balo bo'lg'ay,

Bulbuli nutq benavo bo'lg'ay<sup>6</sup>.

Bob so'ngida Navoiy so'z bulbuliga o'zining zorligini, o'ziga sir bog'i gulzorligini ta'kidlab Tangri taologa uning bog'ini yashnatib navo bergin va bog'ini doimo hosildor tutgin. Uning gulzori gullarini toza aylab, bulbulni baland ovozi qilgin, gulining shamini yanada yorug' qilib atrini butub olamga yoy, bulbulning ovozi baland qil, uning ovozi xalq orasida jo'sh ursin, bog'ining atrini xushbo'y ayla, qushining kuyini yoqimli qil, kuyini el ko'ngliga maqbul qilib, har qanday yaxshi ish bo'lsa, uning bilan mashg'ul etgin, deb yalboradi<sup>7</sup>.

Nizomiy dostonidagi 5-bob Sa'id Alouddin Karp Arslon podshoh duosi bo'lib, uni yetti iqlim podshohi, toj-u taxt boshidagi ganj, zamon-u zaminning himoyachisi ekanligini ta'kidlab, uning janlgardagi mardligi, ovdagi abjirligini maqtaydi:

Dushmani go'yoki beildiz daraxt,

Eshigida chormex o'lur bas na baxt.

Madh so'ngida shohni duo qilib:

Buning nomi Xizri jovidoniy bo'lsun,

Uning hukmida obi zindagoniy bo'lsun...

Azaliydur jahonpanohlig'i uni,

Abadiy o'lsunki podshohlig'i uni<sup>8</sup>.

Keyingi bob podshohga iltijoli xitob bo'lib, unda shoir Iskandarda Arastu bor edi, undan shoh ilm o'rgandi, No'shiravonning jahonida Buzurgmehr edi, Parvizda Borbad, Malikhshohda dinparvar Xoja Nizom bor edi, senda esa ulardan ham yaxshiroq Nizomiy bor deydi:

Senda alardin beh afsare bordur,

Chun Nizomiy suxanparvare bordur<sup>9</sup>.

Navoiy dostonining 6-bobi nazm va nasrning farqi, nazmning xushroqligi, Nizomiy va Dehlaviyning shirin so'zlariga taslim bo'lmoq va u nur taratuvchilarga zarra monand o'zini yetkazish haqidadir. Tabiiyki, bu bob Nizomiy dostonida yo'q. Unda shoir so'zni yagona dur deb atab, uning vasfiga til ojiz ekanligi, bu fanning bilimdonlari uni ikkiga bo'lishini, ya'ni har bir kishi nasr va nazmga murojaat etishini ta'kidlaydi. Shoir nasrdan nazmning martabasini yuqori baholagan holda, nazmning shunday afzalliklari borki, ularga izoh berishga hojat ham yo'q, nazmda masnaviy uslubi eng afzalidir, - deydi shoir:

Masnaviykim, burun dedim oni,

<sup>5</sup> Низомий Ганжавий, "Хамса". Тошкент: "Истиклол нури". 2016, 330-бет

<sup>6</sup> Alisher Navoiy, Sab'ai sayyor, G'.G' ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 23-bet

<sup>7</sup> Alisher Navoiy, Sab'ai sayyor, G'.G' ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 298-bet

<sup>8</sup> Низомий Ганжавий, "Хамса". Тошкент: "Истиклол нури". 2016, 328-бет

<sup>9</sup> O'sha asar, 329-bet

Soʻzda keldi vasi' maydoni<sup>10</sup>.

Navoiy bu bobda Nizomiy madhida:

Elga jon bergali dovoti oning,  
Kelibon chashmayi hayoti oning.  
Kilki Xizrin atash qilib betob,  
Har dam ul chashmadin bo'lub serob.  
Ahli nazm afsahul kalomi ul,  
"Xamsa"ning nizomi Nizomiy ul.  
"Xamsa" yo'q, panj ganji Qoruniy,  
Yoyibon elga Ganja madfuni<sup>11</sup>.

Nizomiyga shu yo'lda payravlik qilgan Dehlaviy haqida esa:

Dema Xusravki, hinduyi jodu,  
Aylabon elni nazmig`a hindu.  
Dema hindu, qaro balo de oni,  
Ne balo, ofati Xudo de oni<sup>12</sup>.

Shuningdek, Navoiy bu ikki xamsanavisni shatranj o'yinidagi oq ot-u (Nizomiy) qora filga (Dehlaviy), o'zini oddiy piyodaga nisbat beradi:

Cheksa shatranj iki saf oqu qaro,  
Xas ne qilg'ay, chu tushsa arsa aro.  
O'zni topqay bisot aro payvast,  
Ot ila pil ayog'i ostida past<sup>13</sup>.

Dostonning 7-bobi "hazrat shayxulislom mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy" madhiga bag'ishlangan. Navoiy uni fazl koniyu ilm daryosi deb atar ekan, ustozini arab tilidagi bilimdonligi jihatidan "Kofiya" asarining muallifi Ibn Hojibga, tafsir ilmida yuzta Ibn Hojarga, fiqh ilmida Imomi A'zamga o'xshatadi. Jomiyning bu sohalarda yaratgan asarlari, devonlari va dostonlarining nomlarini keltiradi. Jomiyning kamolot, ilmi haqida fikrlar bildiradi:

Ilmin oning tengizga qilsa xitob,  
Mutlaq o'lg'ay demak tengizni sarob.  
Ne kamolot aro nihoyat anga,  
Ne marotibda haddu g'oyat anga.  
To kamol ahlidin maqol o'lg'ay,  
Odami ziynati kamol o'lg'ay.  
Ham malak donachini domi aning,  
Ham xirad jur`axo`ri jomi aning.  
Bahravar andin odam avlodi,  
Olam ahlig`a zilli irshodi.  
Mayi hush ahli jonfizoyi ham,  
Jomidin bahravar Navoiy ham<sup>14</sup>.

"Haft paykar"ning 8-bobi o'zining farzandi Muhammadga nasihatidan iborat. Unda shoir avvalo ismiga munosib bo'lishini ta'kidlaydi. O'g'lining kamoloti balandligi bilan baland bo'lishini, olamda yaxshilik izlashini, do'stlarning yaxshi odamlardan bo'lishiga e'tiborli bo'lishini, chunki bitta yomon do'st yuzta odamni yomonotliq qila olishini, ayolni

<sup>10</sup> Alisher Navoiy, Sab' ai sayyor, G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 25-bet

<sup>11</sup> Alisher Navoiy, Sab' ai sayyor, G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 2-bet

<sup>12</sup> O'sha asar, 27-bet

<sup>13</sup> O'sha asar, 28-bet

<sup>14</sup> Yuqoridagi asar, 31-bet

aldamaslikni, ahdini Xudoga mahkam tutishini, boshqa aloqalardan g'am yemaslikni, o'rganishdan qochmaslikni uqtiradi:

Har kim o'rganishdan na etgusi nang,  
Suvdan dur, toshidan la'l olar rang.  
Ulki donnish nasibi bo'lmasa gar,  
Ilm o'rganishdan orlanar, hazar<sup>15</sup>.

Shoir bu o'rinda Sa'diy Sheroziy nasihatnomalariga xos bo'lgan fikrlarni ham o'g'liga aytib o'tadi:

Ulug'lik poyasin sher andin topdi,  
Na dumi likillab xizmatga chopdi.  
Bersang odamlarga o'z xoningdan non,  
Nokaslar halvosin yegandan shoyon<sup>16</sup>.

“Sab' ai sayyor”ning 8-bobi salaflarning nuqsonlari haqida bo'lib, shoir bob sarlavhasida ustozlar asarlariga mulohaza bildirayotgani uchun uzr so'raydi. Navoiy bu bobda doston yaratishdan oldin tush ko'rganini, tushida 7 gumbaz, 7 gumbaz ichida 7 xil rangdagi mutasaddiyi ko'rganini, shu yerda 7 kun yurib, 7 afsona tinglaganini, bir mo'ysafid unga avvalgi dostonlardagi qusurlarni tuzatishni so'raganini, uyqudan uyg'ongach muabbir (tush ta'burchisi) aytgan dalillardan so'ng doston yozishga kirishganini aytadi. Shundan so'ng o'zigacha yozilgan Bahrom haqidagi dostonlarni sinchiklab o'qib chiqqanini ta'kidlab, ustozlarning hurmatini o'z o'rniga qo'ygan holda ularga uchta e'tiroz bildiradi:

Biri bukim yo'q anda moyayi dard,  
Qildilar ishq so'zidin ani fard.

Shoir fikricha, oldingi xamsanavislarning birinchi aybi dardu g'amga yetarlicha ahamiyat bermasdan, uni ishqdan xoli tasvirlaganliklaridadir.

Yana biri bukim anda ba'zi ish,

Zohiran nomunosabat tushmish:

Buyla tuhmatki, aysh uchun Bahrom  
Yasadi yetti qasr surgali kom.  
Yetti iqlim shohidin yeti qiz,  
Har biri lutfu husni g'oyatsiz...  
Uyqu komin olurg'a mastona,  
Sho'xlarg'a buyurdi afsona...  
Anga xud g'aflat o'ldi da'bu sifat,  
Uyqusig'a fasona ne hojat?

Bahromning ayshi uchun yettita qasr qurilishi, yetti malikaning o'zi mastlikdan g'aflat holatiga yetgan shohni uxlatish uchun afsonalar aytishlari asossiz, deydi Navoiy. Buning ustiga, agar afsona aytish zarur bo'lsa, ulardan boshqa qissaxon yo'qmidi degan savolni ham qo'yadi.

Salaflarning uchinchi kamchiliklari dardsiz va nodon kishining sarguzashtlarini ko'rsatishni maqsad qilib olganliklarida edi:

Bo'yla nodon uchun yozib avsof,  
Anga qilgaylar o'zlarin vassof.

Bob so'ngida Navoiy g'oyat kamtarlik bilan o'zini salaflarning faqir shogirdi deb atab, men go'yo pashshadek bo'lib, fil ishini qilmoqchiman, osmon tomiga narvon, quyoshga shamdon yasamoqchiman, o'rgimchak ipidan kamand qilib, ajdahoni tutmoqchiman deydi va Allohdan doston yozishda madad so'raydi<sup>17</sup>.

Navoiy dostonining 9-bob – Sulton Husayn Boyqaro madhi haqidadir. Bu bobda Navoiy falakdagi barcha sayyoralarga birma-bir murojaat qilib, ularni o'z hunarlaridan bir oz tinmoqqa chaqiradi, shoh madhida qalam surmoqchiligini aytadi.

Navoiy Husayn Boyqaroni cheksiz saxovat, chumoliga ham marhamatli adolat egasi deya ta'riflab, adolat bobida hatto

<sup>15</sup> Низомий Ганжавий, “Хамса”. Тошкент: “Истиқлол нури”. 2016, 334-bet

<sup>16</sup> Низомий Ганжавий, “Хамса”. Тошкент: “Истиқлол нури”. 2016, 335-bet.

<sup>17</sup> <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiyning-sabai-sayyor-dostoniga-bagishlangan-navoiyini-anglash-korsatuvi.html>

Anushervon ham uning oldida xijolat chekadi deb yozadi:

Anda Nushirvon kerak boqqay,  
Boshini ergʻatib ovuch qoqqay.  
Chun qilib yod oʻz adolatidin,  
Mutagʻayyir boʻlub xijolatidin<sup>18</sup>.

Asarning 10-bobi – Bilqisi Soniy – Xadichabegim madhiga bagʻishlangan boʻlib, Navoiy talmeh san'ati vositasida Xadichabegimni paygʻambarlar ayollari Sorai Uzmo (Ibrohim paygʻambarning rafiqalari) va Xadichai Kubro (Muhammad (s.a.v)ning ayollari)ga oʻxshatadi. Navoiyning yozishicha, uning goʻzalligidan sunbul va nargis gullari tashvishda, nargis uyatda. Shuningdek, Navoiy Xadichabegimning ikki farzandi Muzaffar Mirzo va Shoh Gʻarib Mirzo (shoir Gʻaribiy) haqida ham toʻxtalib oʻtib, ularni ikki saodatli yulduz, ularning onasini oy-u quyoshga oʻxshatadi:

Oyu kun yoʻq agarchi monanding,  
Ikki sa'd axtar ikki farzanding<sup>19</sup>.

Nizomiy dostonining 9-bobi, Navoiy dostonining 11-bobi “Shoh Bahrom dostoni” ibtidosidir. Keyingi boblardan Bahromshoh dostonining asosiy voqealari boshlanadi.

Nizomiy voqealarni Bahromning tugʻilishi, Yamanda tarbiyalangani, Xavarnaq qasrining qurilishi, otasining vafot etishi, taxt uchun kurashi, tojni olishi, taxtga oʻtirishi, adolati, podshohligi, qahatchilik yili voqealari kabi ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga juda katta ahamiyat qaratadi. Goʻyoki kanizagi Fitna qachonlardan beri mavjud boʻlib, ovga chiqqani, ovdagi kanizakning itobi, haydalihi, Sarhang saqlab qolgani, Bahrom bilan Chin xoqoni jangi, keyin yetti podshoh qizini olib kelgani, yetti gumbaz qurgani va yetti goʻzaldan yetti hikoyat eshitgani, dostonning xotimasidan iborat.

Navoiy Bahromni sasoniylar hukmdori Yazdijurdning oʻgʻli boʻlsa-da, otasidan farqli ravishda ezgu ishlar bilan shugʻullandi, otasi nimani buzgan boʻlsa, u barchasin qaytadan tuzdi, - deydi:

Har ne ul buzdi, bu borin tuzdi,  
Bu borin tuzdi, har ne ul buzdi.  
Kimni oʻlturdi ul qilib majruh,  
Bu qoʻyub marham, oʻldi jismigʻa ruh<sup>20</sup>.

Navoiy salaflar boʻyicha shoh Bahrom tarixini qisqacha bayon etib, endi men aytadigan qissa avvalgilaridan farq qiladi deydi va Allohga shukrona keltirib, Bahrom qissasini boshlaydi.

Nizomiy yetti gumbazni Yamanda vaqtida bir qasrda koʻrgan yetti goʻzal va qasr uchun qurdirgan boʻlsa, Navoiyda esa bu qasrlar Bahrom uchun Diloromning firoqini yumshatish uchun qurdirilgan. Nizomiy yetti hikoyat va Bahrom hamda Fitnaning hikoyatini bogʻlamagan. “Bahrom Goʻr voqealari orasidagi Firdavsiydan Nizomiyga va undan Xusravgacha turli aspektida tasvirlanib, hajm jihatdan kengaytirilib, mazmun jihatdan har xil ishlanib kelingan, lekin nihoyasiga yetkazilmagan shoh va kanizak hikoyasini olib, uni dostonning bosh qoliplovchi hikoyasiga aylantiradi, uni kengaytirib yangicha mazmun berib, qayta ishlaydi va undagi syujetni rivojlantirib, toʻgʻrisi, haqiqiy badiiy, mukammal syujetga, toʻlaqonli, qiziqarli, izchil rivojlanuvchi syujet chizigʻini hosil qilib, qolgan hikoyalarni uning ichiga kiritadi, vobasta qiladi. Buning uchun shoir zoʻr mahorat bilan epik asar yaratish sohasidagi isteʼdodini ishga solib, «Ming bir kecha», «Kalina va Dimna» kabi Sharqda shuhrat topgan asarlarga xos «Hikoya ichida hikoya» usulidan foydalanib, qoliplovchi hikoyaning nihoyasini asarning yechimi sifatida oxirga keltirib, butun asar voqealarini ipga ulaydi va shu bilan yakunlaydi. Buning uchun Navoiy eng munosib usul sifatida ichki hikoyalarning birini – eng soʻnggisini bosh qoliplovchi hikoyaning davomi sifatida keltiradi. Bu hol ikki vazifani amalga oshirishga yordam bergan: 1) asosiy syujetni asar oxirigacha bir chiziqda davom ettirish, asarni yaxlit, yagona syujet asosida yaratish; 2) ichki hikoyatlarni bosh syujetga bogʻlash, uzviy qismga aylantirish. Bular dostonni yaxlit, qiziqarli, ziddiyatli, dramatik rivojlanuvchi harakatga ega asarga aylantirish bilan birga, ayni paytda, uning kompozitsiyasini ham tartibga keltirgan, uni muntazamlikka, ketma-ketlikka aylantirgan<sup>21</sup>.

«Alisher Navoiy dostonidagi voqea va hodisalar oʻzining hayotiyiligi bilan ham farq qiladi. Shoir asarida turli afsonaviy va gʻayritabiiy voqealarga kam oʻrin berilgan. Navoiyda Nizomiyning «Haft paykar» dostonida mavjud boʻlgan munajjimlarning bashoratlari kabi lavhalar ham yoʻq...»<sup>22</sup>

Xullas, shoirning salaflari ijodida koʻrsatgan nuqsonlaridan chiqargan xulosalari uning oʻzi uchun dastur boʻlib hisoblangan, u iloji boricha ana shu nuqsonlardan qochish va foydali, taʼsirli asar yaratishga harakat qilgan.

<sup>18</sup> Alisher Navoiy, Sabʼai sayyor, Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 46-bet

<sup>19</sup> Yuqoridagi asar, 49-bet

<sup>20</sup> Yuqoridagi asar, 51-bet

<sup>21</sup> M.Муҳиддинов, Нурли қалблар гулшани. Тошкент: ФАН, 2007, 36-37-бетлар

<sup>22</sup> С.Ҳасанов, Навоийнинг етти тухфаси, Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашр. Матбаа бирлашмаси. 1991.

Nizomiyda Bahrom doston oxiriga borib, adolat uchun kurashadigan, aysh-u ishratni tark etgan, tadbirli podshoga aylanadi; shunday qilib, Navoiy o'z qarashlarini bir-bir bayon etib, o'z asarining ijodiy tamoyillarini ko'rsatar ekan, bob oxirida so'zini yakunlab deydi:

Yo'q erdi hech choravu tadbir,

Kim biror yerda bo'lmag'ay tag'yir.<sup>23</sup>

Bu degan gap «Sab'ai sayyor» faqat ayrim epizodlar, voqea, timsollari bilangina emas, balki tubdan «Haft paykar»dan farqlanuvchi yangi asardir.

Nizomiy Bahromshoh tarixi bilan bog'langan dostonni yaratib, boshqa xamsanavislarga ilhom bag'ishladi. Navoiy esa bu doston asosida yangi bir o'ziga xos dostonni yaratdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Alisher Navoiy, Sab'ai sayyor, G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 8-bet
2. Nizomiy Ganjaviy, “Xamsa”. Toshkent: “Istiqlol nuri”, 337-bet
3. М.Муҳиддинов, Нурли қалблар гулшани. Тошкент: ФАН, 2007, 36-37-бетлар
4. С.Ҳасанов, Навоийнинг етти тухфаси, Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашр. Матбаа бирлашмаси. 1991.
5. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiyning-sabai-sayyor-dostoniga-bagishlangan-navoiyni-anglash-korsatuvi.html>